

Rasmlar qaysi ertaklardan olingan?



Ertaklar – to'qima va uydirmaga asoslangan, sehrli-sarguzasht va maishiy mazmundagi badiiy asar.

Xalq og'zaki ijodining janrlaridan biri.

Adabiy ertak.

Og'izdan og'izga o'tib kelayotgan hikoya.

Muallifi ma'lum emas.

Muallifi ma'lum bo'lgan ertaklar. Ular she'riy shaklda ham yoziladi.

O'zbek xalq ertaklari, rus xalq ertaklari, qozoq xalq ertaklari...

Aka-uka Grimmlar "Zolushka", O'tkir Hoshimov "Tomchi haqida ertak"

Shirin uyqu

O'zbek xalq ertagi



Bir odamning uchta o'g'li bor ekan. Shu odam vafot etayotganida bolalariga: "Uyquni shirin qilib uxlang, ovqatni shirin qilib yeng", – deb vasiyat qilibdi. Bu gapni ikkita katta o'g'li bir xil tushunibdi, kichik o'g'li esa boshqacha tushunibdi. Ikkita katta akasi yerga suv sepib, chorpoyani qurib, katta ko'rpani to'shab, "uyquni shirin qilish" shunday bo'ladi-da, deb yotaveribdi. Keyin ust-ustiga har xil shirin taomlarni yeb, "ovqatni shirin qilib yeyish" mana



bunaqa bo'ladi, deb yuraveribdi. U yoqqa ag'anab, bu yoqqa ag'anab, yota-yota ovqatlari ham singmay, yegan ovqatining ham, uxlagan uyqusining ham mazasini bilmabdi. Oxir-oqibat, yeyishga ovqatlari qolmay, kambag'al bo'lib qolishibdi.

Kichkinasi ishlab-ishlab kelib, yegan quruq noni ham shirin, ichgan choyi undan shirin, uxlasa uyqusi ham shirin bo'lar emish. Shunday qilib, uning borgan sari davlati ziyoda bo'lib, uyqusi shirin, ovqati mazali bo'lib boravergan ekan.



1. Ota bolalariga nima deb vasiyat qilgan ekan?
2. Bu vasiyatni bolalari qanday tushunishdi?
3. Ayting-chi, ota vasiyatini qaysi o'g'il to'g'ri tushunolgan ekan? Fikringizni izohlang.
4. Uyqu shirin bo'lishi mumkinmi? Nima uchun?
5. Siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?
6. Ertakdan chiqargan xulosangiz bilan o'rtoqlashing.



vasiyat – o'z yaqinlariga qoldirgan topshiriq, istak, nasihat

chorpoya – ochiq havoda o'tirishga, yotishga mo'ljallangan yog'och karavot

davlati ziyoda – boy, badavlat



Ertak qahramonlariga baho bering.



“Savollar gulshani” mashqi. Ertak asosida savollar tuzing. Savollaringizni o‘qib bering va do‘stlaringizning javobini eshiting.

Nima
uchun?

Nega?

Kim?

Savollar
gulshani

Qanday?

Nima?

Qachon?



Ertakni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
Ertak mazmuniga mos maqollar toping.